

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yil yanvar-sentyabr

Sirdaryo viloyatida hozirgi vaqtda kichik tadbirkorlik (biznes)ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash, shuningdek, litsenziyalar va ruxsatnomalarning rasmiylashtirilishi shaffofligini tubdan soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Natijada, 2018 yilning yanvar-sentyabrda 1044 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida (26,1%), sanoat tarmog'ida (17,8%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida (17,5%), qurilish tarmog'ida (16,6%), boshqa tarmog'larda (9,0%) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




**2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik
tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari**

	o'lchov birligi	2017 y.	2018 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	7395	8087	692
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	985	1044	59
YaHM %	%	66,1	68,1	2,0
Sanoat	%	48,8	50,9	2,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,0	99,2	0,2
Investitsiya %	%	41,8	50,4	8,6
Qurilish	%	94,9	95,4	0,5
Savdo	%	92,5	93,7	1,2
Xizmatlar	%	62,2	64,0	1,8
Yuk tashish	%	95,4	95,7	0,3
Yuk aylanmasi	%	94,5	95,6	1,1
Yo'lovchi tashish	%	96,8	96,8	0,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,2	98,3	0,1
Eksport	%	70,9	68,5	-2,4
Import	%	88,3	96,3	8,0

2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Sardoba


tumanida 5,5 birlikda, Oqoltin tumanida 4,1 birlikda, Mirzaobod tumanida 4,0 birlikda va Xovos tumanida 3,4 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 3-2,6 birlik oralig'ida Guliston shahar, Guliston tumani, Sayxunobod tumanlarida aniqlandi. Shirin shahrida 1,1 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2018 yilning yanvar-sentyabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2017 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 2,7 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 3,1 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 0,4 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentyabr holatiga.




2018 yilning yanvar-sentyabrda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes) ning sanoatdagi ulushi 50,9 %, qurilishda - 95,4 %, investitsiyada - 50,4 %, savdoda - 93,7 %, eksportda - 68,5 %, importda - 96,3 % va xizmatlar sohasida - 64,0 % tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabrda iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi



2018 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 68,1 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentyabrda 66,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining ko'payishi dinamikasi yanvar-sentyabr holatiga, %



2018 yil yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
--	--------	----------	-----------	--------------

Sirdaryo viloyati	50,9	95,4	64,0	50,4
--------------------------	-------------	-------------	-------------	-------------

shaharlar:

Guliston shahar	76,2	96,1	36,8	35,3
-----------------	------	------	------	------

Yangier shahar	61,6	100,0	95,1	49,0
----------------	------	-------	------	------

Shirin shahar	1,1	94,9	98,1	42,7
---------------	-----	------	------	------

tumanlar:

Oqoltin tuman	41,6	91,6	96,2	17,4
---------------	------	------	------	------

Boyovut tuman	79,5	99,9	87,2	12,1
---------------	------	------	------	------

Sayxunobod tuman	67,7	87,2	40,4	39,0
------------------	------	------	------	------

Guliston tuman	73,0	99,8	98,3	28,5
----------------	------	------	------	------

Sardoba tuman	48,4	99,9	80,6	14,6
---------------	------	------	------	------

Mirzaobod tuman	100,0	89,1	99,1	68,9
-----------------	-------	------	------	------

Xovos tuman	62,8	86,2	95,7	27,5
-------------	------	------	------	------

Sirdaryo tuman	86,7	99,7	98,1	87,6
----------------	------	------	------	------

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Mirzaobod tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (86,7 %), Boyovut tumani (79,5 %) va Guliston shahri (76,2 %) ni tashkil etadi.

Qurilishda – Yangier shahri (100,0 %), Sardoba tumani (99,9 %), Guliston tumani (99,8 %), Guliston (96,1 %) va Shirin (94,9 %) shaharlari tashkil etadi.


Xizmatlar sohasida Mirzaobod tumani (99,1 %), Sirdaryo tumani (98,1 %), Guliston tumani (98,3 %), Shirin shahri (98,1 %), Oqoltin (96,2 %) va Xovos (95,7 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Sirdaryo tumani (87,6 %), Mirzaobod tumani (68,9 %) va Yangier shahri (49,0 %) ni tashkil etadi.


2018 yilning yanvar–sentyabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1566,8 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 50,9 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 110,2 % ni tashkil qildi;
- 658,6 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 50,4 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 136,1 % ni tashkil qildi;
- 452,0 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 95,4 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 108,2 % ni tashkil qildi;
- 886,6 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 64,0 %), 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 104,8 % ni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 93,7 % yoki 1548,2 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 6,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 66,8 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 68,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 1,3 mln. AQSh dollariga yoki 1,9 % ga kamaygan;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,7 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,6 %) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 3,3 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 98,3 %) ko`payishi ta`minlandi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur`ati



Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Guliston shahri (356,1 mlrd.so`m), Sirdaryo (553,4 mlrd.so`m), Boyovut (164,0 mlrd.so`m) va Mirzaobod (131,9 mlrd.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Shirin shahrida (11,6 mlrd.so`m) va Sardoba tumanida (36,2 mlrd.so`m) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo`lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (561,4 mlrd.so'm), Sirdaryo (180,1 mlrd.so'm), Guliston (138,9 mlrd.so'm), Sardoba (135,6 mlrd.so'm) va Mirzaobod (125,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (149,9 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (52,9 mlrd.so'm) va Yangier (39,2 mlrd.so'm) shaharlarida qayd etildi.



2018 yil yanvar- sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Guliston shahri (244,9 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (188,8 mlrd.so'm), Yangier shahri (100,6 mlrd.so'm) va Mirzaobod (66,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil III-chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 25 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


Ulardan sanoat korxonalari soni - 4 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 16 %), qurilish - 4 ta (16 %), savdo - 7 ta (28 %), xizmatlar sohasi - 5 ta (20 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 5 ta (20 %) ni tashkil qildi.

2018 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Guliston shahrida - 40,0 %, Sirdaryo tumanida - 12,0 %, Sayxunobod tumanida - 12,0 %, Yangier shahrida - 8,0 %, Oqoltin tumanida - 8,0 %, Xovos va Sardoba tumanlarining ulushi 4,0 % ni tashkil qildi.


2018 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 50,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 25,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 28,6 % va 71,4 %, xizmatlar sohasida – 40,0 % va 20,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 60,0 %, sanoatda – 25,0 % va 25,0 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 50,0 %, qurilishda – 25,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 40,0 %, va xizmatlarda – 40,0 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 25,0 % sanoat korxonalari, 71,4 % – savdo, 60,0 % – xizmatlar, 60,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 50,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo`limi

Nashr uchun mas'ul:

B.Mamadaliev

Tel.: (0371) 230-86-16